

## SINFDAN TASHQARI DIDAKTIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

**Baratov Baxtiyor Kodirovich**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi**

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada sinfdan tashqari didaktik faoliyatning mazmuni, maqsadi, vazifalari va uni tashkil etishning foydali usullari va turlari yoritilgan. Bundan tashqari sinfdan tashqari faoliyat bolalarning darsda o'zlashtirgan ma'lumotlarini mustahkamlash, boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va shu bilan birga, erkin fikrlash va izlanuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit So'zlar:** *tadqiqot, mashg'ulot, faoliyat, didaktik faoliyat, ta'lim jarayoni, ijodiy qobiliyatlar.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются содержание, цель, задачи внеклассной дидактической деятельности, а также методы и виды её организации. Кроме того, внеклассная деятельность способствует закреплению и обогащению знаний, полученных детьми на уроках, развитию их творческих способностей, а также формированию навыков свободного мышления и исследовательской деятельности.*

**Ключевые Слова:** *исследование, обучение, деятельность, дидактическая деятельность, образовательный процесс, творческие способности.*

**Annotation:** *This article discusses the content, purpose, objectives of extracurricular didactic activities, as well as useful methods and types of their organization. In addition, extracurricular activities serve to consolidate and enrich the knowledge acquired by children in the classroom, develop their creative abilities, and at the same time, form the skills of free thinking and research.*

**Keywords:** *research, training, activity, didactic activity, educational process, creative abilities.*

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasida talabalarning ta'lim olish jarayoni faqat dars mashg'ulotlari bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda sinfdan tashqari didaktik faoliyat juda katta ahamiyatga ega. Mazkur faoliyat turi olingan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va amaliyotga tatbiq etishni shu bilan bir qatorda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, Prezidentimiz

ta'kidlaganidek, "yoshlarimizning har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib voyaga yetishi-kelajagimizning mustahkam poydevoridir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Sinfdan tashqari didaktik faoliyat-bu o'quvchilarning dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida o'tkaziladigan shu bilan bir qatorda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ma'nan boyitish hamda qiziqish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Pedagog olimlarning fikricha, bunday faoliyat shakli dars jarayonida o'rganilgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, ularda erkin fikrlash, izlanuvchanlik va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari faoliyatning ahamiyatli jihati shundaki, u ta'lim-tarbiya jarayonini boyitadi, dars jarayonida yetarli darajada o'z ifodasini topa olmagan vaziyatlarni to'ldirib boyitib boradi. O'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini ro'yobga chiqaradi. Xususan fan to'garaklari, olimpiadalar, ijodiy tanlovlar sport musobaqalari va madaniy-ma'naviy tadbirlar o'quvchilarning bilim sifatini balki dunyoqarashini, fikrlashini, estetik didini shuningdek, ijtimoiy faolligini rivojlantiradi.

Shu boisdan ham sinfdan tashqari didaktik jarayonni tashkil etish hozirgi yosh avlodni har tomonlama barkamol inson sifatida uyg'ayishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Sinfdan tashqari didaktik faoliyatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat;

1. Darsda o'tilgan bilimlarni mustahkamlash va shu asnoda chuqurlashtirish.
  2. O'quvchilarning mustaqil o'rganishi va izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish;
  3. Ilmiy dunyoqarash va ijodkorlik salohiyatlarini shakllantirish;
  4. O'quvchilarda ijtimoiy faollik va jamoa bilan ishlash malakasini tarbiyalash;
- Didaktik faoliyatni tashkil etish shakllari;
- Fakultativ mashg'ulotlar-qo'shimcha fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan darslar;
  - To'garaklar- matematika, adabiyot, texnika, san'at, sport va boshqa fan mashg'ulotlari;
  - Olimpiadalar va tanlovlar- fanlar kesimidagi o'tkaziladigan turli xil olimpiadalar, ijodiy tanlovlar va shu bilan birga turlicha viktorinalar;
  - Ekskursiyalar-turli xil ishlab chiqarish zavodlari, tarixiy muzeylar, shuningdek oddiygina tabiat qo'yniga sayohatlar tashkillash orqali amaliy bilim berish;
  - Kutubxona bilan ishlash- bir nechta mavzularga oid badiiy va ilmiy adabiyotlarni o'qib tahlil qilish;
  - Loyiha ishlarini tashkil etish- guruh-guruh bo'lib yoki yakka tartibda kichik ilmiy izlanishlar yoki tadqiqotlar olib borish;
  - Informatik va interfaol mashg'ulotlar- har xil online kurslar va interaktiv testlar bilan ishlash;

Bu jarayonlarning barchasini to'g'ri va tartibli tashkil etish orqali dars mashg'ulotlari yoki sinfdan tashqari didaktik ishlar tashkillansa, o'quvchi uchun ham pedagog uchun ham juda samarali va ijobiy foydalarga ega bo'ladi.

## **NATIJAR VA MUHOKAMA**

Sinfdan tashqari faoliyatni to'g'ri va izchil olib borish uchun bir necha bosqichlarni bajarish kerak;

Rejalashtirish- o'quvchilar qiziqishi va ehtiyoj va talablariga ko'ra tadbirlarni tanlash.

Amalga oshirish- darsdan tashqari vaqtlarda rejalashtirilgan mashg'ulotlarni tizimli tarzda amalga oshirish.

Nazorat va tahli qilish- olingan natijalarni oqilona baholash va qilingan xatolar ustida ishlash.

Rag'batlantirish- jarayonda faol qatnashgan o'quvchilarni o'rinli taqdirlash va ularga yanada ko'proq o'qishga mehr uyg'otish.

Shu bilan birga, o'quvchilarni sinfdan tashqari didaktik faoliyatni tashkil etishga qiziqtirishning qator afzalliklari mavjud;

O'quvchilarni fanga qiziqishlarini ta'minlaydi;

Mustaqil fikrlashlarini va dunyoqarashlarini rivojlantirishga yordam beradi;

Jamoa bo'lib ishlash malakasini va madaniyatini shakllantirishga yordam beradi;

O'quvchilarning shaxsiy qobiliyat va iqtidorlarini yuzga chiqarishga ko'maklashadi;

Bundan tashqari, didaktik faoliyatning bir qator maqsad va vazifalari mavjud;

O'quvchilarda dars jarayonida olingan bilim va malakalarni mustahkamlash, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini ko'ra olish va shakllantirish shu bilan bir qatorda jamoaviy faoliyat va muloqot qila olish madaniyatini o'stirish va shakllantirish kabi bir necha bosqichlardan tashkil topadi.

Sinfdan tashqari didaktik faoliyatni tashkil etishning o'ziga yarasha olib borishdagi faoliyat yo'nalishlari mavjud;

Ilmiy yo'nalish – ma'lum bir fan to'garaklari doirasida olib boriladi. Shuningdek, fan to'garaklariga tayyorlov mashg'ulotlari, ilmiy amaliy loyihalar va kichik tadqiqot ishlari shular sirasiga kiradi.

Madaniy-ma'rifiy yo'nalish- adabiy- badiiy kechalar tashkil etish, teatr, kino tomoshalarini uyushtirish va mashhur va taniqli shoir va yozuvchilarning asarlarini o'qish va tahlil qilish;

Sport-sog'lomlashtirish yo'nalishi- turli xil sport musobaqalari tashkillash, sog'lom turmush tarziga oid suhbatlar uyushtirish, har xil sayohatlar va tabiat qo'ynida turlicha qiziqarli mashg'ulotlar olib borish kabilar tushuniladi.

Ijtimoiy-foydali mehnat yo'nalishi- maktab va atrof-muhitni obodonlashtirishga qaratilgan aksiyalar, shu bilan birga kutubxonada kitoblarni tartiblash va yangilash ishlari, mehribonlik uylari va faxriylar holidan xabar olish kabi faoliyatlar o'rganiladi.

Mana shu ishlarning hammasini tartibli, izchil va albatta ma'lum bir reja asosida tashkil etilsa, o'ylangan maqsadga va shu bilan birgalikda ko'zlangan marraga oson va tez erishiladi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, sinfdan tashqari ishlarni samarali, to'g'ri tashkil qila olish o'quvchi uchun balki pedagog uchun ham yaxshi va foydali bo'ladi. O'quvchi darsda olgan va o'zlashtirgan bilimlarini amaliy tarzda qo'llay oladi va mustahkamlashga imkoniyat yaratiladi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi darsdan tashqari didaktik faoliyatni to'g'ri taqsimlashi va to'g'ri tashkil eta olishi xarakterli hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.I.Avazboyev, Y.U.Ismadiyarov, Kasbiy pedagogika. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2014
2. X.Ibraimov, M.Quronov, Umumiy pedagogika, Sahhof, 2023
3. B.S.Siddiqov, D.F.To'xtasinov, N.Q.Olimova, Pedagogika, darslik, Farg'ona-2023
4. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Raxmonqulova, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Toshkent-2010
5. Ziyonet, Wikipedia.